

KASBIY STANDART
Yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha faoliyat

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Yovvoyi tabiat nazoratchisi" va "Hayvonshunos" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ekologik monitoring – atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning ekologik holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish bartaraf etish maqsadida atrof tabiiy muhitning biotik va abiotik komponentlarining holatini, ularning ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlari (jarayonlari) tufayli o'zgarishini muntazam kuzatish tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat funksiyalari va vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy

va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi, qobiliyat, mahorat, ko'nikma va bilimlar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha faoliyat	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini monitoring va tahlil qilish orqali o'rmon resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash, ekologik muvozanatni mustahkamlash va tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A seksiyasi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 02 O'rmonchilik va yog'och tayyorlash 02.1 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati 02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati 02.10.0 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini saqlash va barqaror boshqarishga yordam berish, shuningdek, o'rmon resurslaridan samarali foydalanish va ularni qayta tiklash hamda ekologik muvozanatni mustahkamlash va tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, mazkur kasbiy faoliyat sohasida xodimlarga qo'yiladigan talablar va zarur bilim, ko'nikmalarni yagona nuqtai nazardan shakllantirish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		54190016 Yovvoyi tabiat nazoratchisi	3
		61290007 Hayvonshunos	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalar		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	54190016 Yovvoyi tabiat nazoratchisi	A1.3	Yovvoyi tabiat hududlarini patrullash va monitoring qilish	A1.01.3	Hududlarni muntazam patrullash orqali noqonuniy ov va boshqa qonun buzilish holatlarini aniqlash
				A1.02.3	Hayvonlar populyatsiyasi va ekologik holatni monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish va hisobot tayyorlash
		A2.3	Qonunbuzarliklarni tekshirish va muhofaza choralarini qo'llash	A2.01.3	Shikoyatlar va signallarni tekshirish, dalillar yig'ish va protokollar tuzish
				A2.02.3	Jarimalar, litsenziyalarni bekor qilish yoki boshqa choralar orqali qonunbuzarlarga nisbatan chora ko'rish
2	61290007 Hayvonshunos	B1.4	Hayvonlarning biologik holatini monitoring qilish	B1.01.4	Hayvonlar populyatsiyasini muntazam kuzatish, sog'liq va xulq-atvor ko'rsatkichlarini baholash
				B1.02.4	Ovqatlanish, muhit sharoitlari va boshqa ekologik omillarni tahlil qilish, ma'lumotlarni bazaga kiritish va hisobot tayyorlash
		B2.4	Hayvonlarni parvarishlash va muhofaza qilish choralarini ko'rish	B2.01.4	Kasalliklar oldini olish uchun vaksina, gigiyena va boshqa profilaktik choralarini qo'llash hamda davolash dasturlarini ishlab chiqish
				B2.02.4	Hayvonlarni ko'paytirish va reabilitatsiya jarayonlarini boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Yovvoyi tabiat nazoratchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	54190	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash, issiq, sovuq, namlik, chang va o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Qo'riqxon nazoratchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-Yovvoyi tabiat hududlarini patrullash va monitoring qilish	A1.01.3-Hududlarni muntazam patrullash orqali noqonuniy ov va boshqa qonun buzilish holatlarini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hudud xaritasi va marshrutlarni oldindan rejalashtirish va tekshirish
		2. Belgilangan vaqtda hududlarni piyoda va transport vositalari bilan aylanib chiqish
		3. Noqonuniy ov belgilari bo'lgan tuzoqlar, o'q izlari va qonun buzilishlarni vizual tekshirish va hujjatlashtirish
		4. Aniqlangan buzilishlar haqida darhol radio va telefon orqali markazga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Hududni samarali patrullash marshrutlarini rejalashtirish
		GPS qurilmalari va xaritalarni o'qish
		Noqonuniy ov izlarini tez aniqlash
		Yirtqich hayvonlar va qonunbuzarlar bilan xavfli vaziyatlarda o'zini himoya qilish
		Tezkor va aniq hisobot yozish va rasmiy hujjatlar to'ldirish
		Radioaloqa va aloqa vositalaridan professional

		foydalanish
		Bilimlar: Noqonuniy ov belgilari Hududning geografik xususiyatlari va yovvoyi hayvonlar odatlari Qonun buzilishlarni hujjatlashtirish tartibi va protokol tuzish qoidalari Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik choralari va evakuatsiya tartibi Tabiiy muhitdagi o'simliklar, hayvonlar va ularning xavf darajalari Patrullash jadvali va monitoring standartlari
	A1.02.3-Hayvonlar populyatsiyasi va ekologik holatni monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish va hisobot tayyorlash	Mehnat harakatlari: 1. Belgilangan joylarda hayvonlar sonini qayd etish, izlari va belgilarini yozib olish 2. Suv sifati, o'simlik qoplami, tuproq holati va boshqa ekologik ko'rsatkichlarni o'lchash hamda namuna olish 3. Yig'ilgan ma'lumotlarni elektron jadvallarga kiritish va oylik/choraklik hisobot tayyorlash
		Ko'nikmalar: Hayvonlar populyatsiyasini baholashda transect, va kamera-tuzoq usullarini qo'llash
		Ekologik parametr o'lchagichlar bilan ishlash
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va grafiklar tuzish
		Hisobot yozish va vizual materiallar tayyorlash
		Monitoring jadvalini mustaqil rejalashtirish va bajarish
		Bilimlar: Yovvoyi hayvon turlari, ularning populyatsiya dinamikasi va monitoring metodlari
		Ekologik monitoring standartlari
		Biologik va ekologik ko'rsatkichlar o'lchash normalari va mezonlari
		Hisobot tuzish shakllari va topshirish muddatlari
		Tabiiy muvozanat buzilishlarini aniqlash va bashorat qilish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Monitoring ma'lumotlarining to'g'riligi va o'z vaqtida topshirilishi uchun javobgarlik
A2.3-Qonunbuzarliklarni tekshirish va muhofaza choralari qo'llash	A2.01.3-Shikoyatlar va signallarni tekshirish, dalillar yig'ish va protokollar tuzish	Mehnat harakatlari: 1. Shikoyat, signal kelgan joyga tezkor yetib borish va dastlabki tekshiruv o'tkazish
		2. Foto, video, guvohlar so'rovi, material namunalari asosida dalillar yig'ish va rasmiy hujjatlashtirish
		3. Qonunbuzar shaxslar bilan suhbat o'tkazish va ularning ko'rsatmalarini yozib olish
		4. Tekshiruv natijalariga asosan qonunbuzarlik protokolini to'ldirish va imzolash
		Ko'nikmalar: Shikoyat va signallarni qabul qilish hamda ro'yxatdan

		o'tkazish
		Dalillarni professional suratga olish va saqlash
		Guvohlar va shubhali shaxslar bilan huquqiy suhbat o'tkazish
		Bayonnoma va aktlarni qonun talablariga muvofiq to'ldirish
		Tekshiruv jarayonini xronologik tartibda hujjatlashtirish va hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi va atrof-muhit muhofazasi qonunchiligi
		Tekshiruv va dalillar yig'ish tartibi
		Protokol tuzishning majburiy shakllari va to'ldirish qoidalari
		Guvohlar huquqlari va majburiyatlari, guvohlik berish tartibi
	A2.02.3-Jarimalar, litsenziyalarni bekor qilish yoki boshqa choralar orqali qonunbuzarlarga nisbatan chora ko'rish	Mehnat harakatlari:
		1. Qonunbuzarlik holatini hujjatlashtirish va jarima miqdorini qonunga muvofiq hisoblash
		2. Qonunbuzarga rasmiy ogohlantirish berish, konfiskatsiya chorasini qo'llash
		Ko'nikmalar:
		Jarima va choralar miqdorini aniq hisoblash va hujjatlashtirish
		Rasmiy hujjatlar to'ldirish
		Qonunbuzarlar bilan professional muloqot va muzokara olib borish
		Konfiskatsiya va mulkni rasmiy topshirish-olish tartibini bajarish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit muhofazasi qonunchiligi talablari
		Litsenziya berish, bekor qilish va qayta tiklash tartibi
		Jarima turlari va miqdorlari
		Qonunbuzarlarga nisbatan choralar qo'llashning bosqichma-bosqich tartibi
		Sudga murojaat qilish va dalillar tayyorlash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Qonun buzilishi holatlarida qonun doirasida mustaqil ravishda choralar qo'llash va hujjatlarni topshirish uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Rasmiy hujjatlarni chop etish va raqamli imzolash uchun planshet hamda kompyuter vositalari

Kasbning nomi:	Hayvonshunos	
Mashg'ulot nomining kodi:	61290	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash, issiq, sovuq, namlik, chang va o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Zoologiya bazalarida hayvon boquvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.4- Hayvonlarning biologik holatini monitoring qilish	B1.01.4- Hayvonlar populyatsiyasini muntazam kuzatish, sog'liq va xulq-atvor ko'rsatkichlarini baholash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarning kunlik sog'liq holatini vizual tekshirish va tibbiy jurnalga yozib olish
		2. Xulq-atvor kuzatuv uchun standart jadval to'ldirish
		3. Populyatsiya sonini sanash va yangi tug'ilgan va yo'qolgan hayvonlarni ro'yxatga olish
		4. Anomaliyalarni aniqlash va veterinarga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Hayvonlarning normal va patologik xulq-atvorini farqlash
		Biologik ko'rsatkichlarni o'lchash
		Monitoring ma'lumotlarini elektron bazaga kiritish va tahlil qilish
		Hayvonlarni stresssiz kuzatish va xavfsiz masofadan interaktiv aloqa o'rnatish
		Grafiklar va diagrammalar tuzish orqali populyatsiya dinamikasini ko'rsatish
		Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
		Bilimlar:
		Hayvonlar turlari bo'yicha biologik xususiyatlar va yosh guruhlari normal ko'rsatkichlari

		Veterinariya gigiyenasi va kasalliklarning dastlabki belgilari
		Populyatsiya monitoringi metodlari
		Hayvonlar psixologiyasi va stress omillari
		Hayvonlarni to'g'risida qonunchilik asoslari va zookeeperlik standartlari
		Hisobot tuzish shakllari va monitoring dasturlari
	B1.02.4- Ovqatlanish, muhit sharoitlari va boshqa ekologik omillarni tahlil qilish, ma'lumotlarni bazaga kiritish va hisobot tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarning ovqatlanish ko'rsatkichlarini o'lchash va yozib olish
		2. Harorat, namlik, yorug'lik, suv sifati va boshqa parametrlarni qurilmalar bilan o'lchash va standartlarga moslashtirish
		3. Yig'ilgan ekologik ma'lumotlar asosida hisobot tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Ovqatlanish ratsionlarini tahlil qilish va kaloriya balansini hisoblash
		Ekologik sensorlar bilan professional ishlash
		Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va trendlarni aniqlash
		Hisobotlarda grafiklar, diagrammalar va xaritalar tayyorlash
		Ekologik omillarning hayvonlar salomatligiga ta'sirini bashorat qilish
		Bilimlar:
		Har bir hayvon turi uchun optimal ovqatlanish standartlari va vitaminlar ratsioni
		Zoologik bog' va fermalarda muhit sharoitlari normalari
		Ekologik omillarning hayvonlar fiziologiyasiga ta'siri
		Hisobot tayyorlash usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekologik ma'lumotlarning to'g'riligi va o'z vaqtida bazaga kiritilishi uchun javobgarlik
B2.4-Hayvonlarni parvarishlash va muhofaza qilish choralari ko'rish	B2.01.4- Kasalliklar oldini olish uchun vaksina, gigiyena va boshqa profilaktik choralarni qo'llash hamda davolash dasturlarini ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlar uchun vaktsinatsiya jadvalini tuzish
		2. Hayvonlar yashash joylarini gigiyenik tozalash va dezinfektsiya qilish
		3. Parazitlarga qarshi dori, vitamin qo'shimchalari va boshqa profilaktik choralarni qo'llash va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Vaktsinatsiya va dori vositalarini xavfsiz qo'llash
		Gigiyenik tozalash va dezinfektsiya vositalaridan samarali foydalanish
		Hayvonlarning kasallik belgilari asosida dastlabki tashxis qilish va hujjatlashtirish
		Davolash dasturlarini rejalashtirish va monitoring qilish
		Veterinarlar jamoasi bilan samarali hamkorlik qilish va hisobot taqdim etish
		Bilimlar:

		Hayvonlarning asosiy kasalliklari, ularning oldini olish va dastlabki davolash usullari
		Vaksinatsiya turlari, dozalari va qo'llash muddatlari
		Zoologik muhitda gigiyena va sanitariya standartlari
		Parazitlarga qarshi va profilaktik dorilarning ta'siri va xavfsizlik qoidalari
		Davolash dasturlarini ishlab chiqish va hujjatlashtirish tartibi
	B2.02.3- Hayvonlarni ko'paytirish va reabilitatsiya jarayonlarini boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarning juftlashish, homiladorlik, tug'ilish va boshqa ko'payish davrlarini kuzatish va rejalashtirish
		2. Zaif va jarohatlangan hayvonlarni reabilitatsiya qilish uchun maxsus parvarish dasturlarini amalga oshirish
		3. Ko'payish va reabilitatsiya jarayonlarini hujjatlashtirish, ma'lumotlarni bazaga kiritish va hisobot tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Hayvonlarning juftlashish davrini aniqlash va mos sharoitlarni ta'minlash
		Reabilitatsiya jarayonlarida hayvonlarni stresssiz boshqarish va parvarish qilish
		Tug'ilish jarayonida yordam berish va yangi tug'ilgan hayvonlarni dastlabki kuzatish
		Ma'lumotlarni tizimli ravishda ro'yxatga olish va tahlil qilish
		Veterinar mutaxassislar bilan hamkorlikda reabilitatsiya dasturlarini muvofiqlashtirish
		Bilimlar:
		Hayvonlarning ko'payish biologiyasi va turlarga xos reproduktiv xususiyatlari
		Jarohat, stress, kasallikdan keyingi parvarish va boshqa reabilitatsiya usullari
		Ko'payish va reabilitatsiya jarayonlarini hujjatlashtirish standartlari
		Hayvonlarning yosh guruhlariga mos parvarish va oziqlantirish talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ko'payish va reabilitatsiya jarayonlari bo'yicha to'liq javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Kamera-tuzoqlar, harorat va namlik o'lchagichlar va boshqa monitoring uchun maxsus jihozlardan samarali foydalanish

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i	B.Kazakbayeva
2	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi	I.G'ulomov
3	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Mustaqil maslahatchi	N.Almedov
4	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo'limi menejeri	U.Ermuminov
5	"Ekomodern" MCHJ direktori	S.Axmedova